

Mavzu: Gapda soʻzlarning bogʻlanishi



Loyxōrak – botqoqlik qushi.

botqoqlik



1-mashq. Oʻqing. Soʻroqlar yordamida ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning qaysi gap boʻlagi ekanini aniqlang. Ularni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring.

Namuna: osmonni qopladi.

Osmonni quyuv bulut qopladi. Ular quyosh nurini toʻsib, atrofga **salqinlik** olib keldi. Bunday salqin ob-havoda maydalab **kuzgi** yomgʻir yogʻa boshladi. **Koʻchalarda yomgʻir** suvlari toʻplanib, koʻlmaklar hosil boʻldi.

Bolalar deraza oldiga yigʻilib, kuzgi **tabiatning** goʻzalligidan zavq olishdi. Ayrimlari qoʻllariga **rang-barang** soyabonlarini olib, hovliga chiqishdi. Kuz oʻzining **saxovatli** va fayzli kunlarini boshlab berdi.

- Gapda soʻzlar oʻzaro nimalar vositasida bogʻlanadi?



Gapda soʻzlar oʻzaro **-ni, -ning, -ga (-ka, -qa), -da, -dan** qoʻshimchalari va ohang yordamida bogʻlanadi.




Loyxoʻraklar koʻl va daryo boʻylaridagi balchiqlarda juda koʻp uchraydi. U juda uzun va ingichka tumshugʻi bilan ajralib turadi. Daraxtzor va butazorlarga yaqin nam yerlarni afzal koʻradi. Loy va tuproq ostidagi zararli hasharotlar, qurtlarni yeb, tabiat muvozanatini saqlaydi. Biroq oʻzi ham yirtqich qushlar va yovvoyi hayvonlar uchun muhim oziq manbayi hisoblanadi.





2-mashq. O'qing. So'roqlar yordamida gapdagi so'zlarning bog'lanishini aniqlang va chizmada tasvirlang.

Namuna:



1. Sap-sariq barglar yerga to'kilmoqda.⁵
2. Chiroyli kapalak gulga qo'ndi.
3. Salqin shamol yuzimga urildi.
4. Tartibli bola darsga kechikmaydi.



Gapda so'zlar o'zaro bog'lanadi.

- Ega kesimga bog'lanadi.
- Ikkinchi darajali bo'laklar kesimga yoki egaga bog'lanadi.

Masalan: mevalar pishdi; shirin qovun; qanotlarini qoqdi.



3-mashq. Rasm asosida berilgan so'zlardan foydalanib, matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar:

qovun, bobo, nabiralar, dala, hosil, kesmoq, mehmon qilmoq, yemoq, suhbatlashmoq, xursand bo'lmoq, terib olmoq, shirin, mehribon, sariq, mazali, katta, Akmal, Madina, Sardor.

- Matnga sarlavha qo'ying.





Gapda soʻzlar oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlanadi.



4-mashq. Oʻqing. Matndagi maʼno jihatdan bogʻlanmagan soʻzlarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib yoki boshqa soʻz bilan almashtirib, matnni koʻchiring.

Iqtisodiy bilimga ega boʻlmagan odam hamyonidan ayrilmaydi. Har kim iqtisodni koʻchadan, oʻz xonadonidan boshlamogʻi kerak. Elektr, suv, gazdan tejab va tejamasdan foydalanishni odat qiling. Doʻkondan ortiqcha non sotib oling. Ortiqchasi isrof boʻladi. Shu-larga amal qilmagan bolakaydan yaxshigina iqtisodchi² chiqadi.

- Fikr ifodalashda nimalarga eʼtibor berishingiz kerak?



“HA-YOʻQ” intellektual oʻyini.

1. Gapda soʻzlar oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlanadi.
2. Ikkinchi darajali boʻlaklar faqat egaga bogʻlanadi.
3. Ega va kesim soʻz birikmasini hosil qiladi.



5-mashq. Oʻqing. Soʻroqlar yordamida gap boʻlaklarini aniqlang. Ularning bogʻlanishini chizmada tasvirlab yozing.

1. Men elimning yuragida yashayman.
2. Biz qovunlarni, tarvuzlarni mashinalarga ortdik.
3. Biz olmalarni, noklarni savatlarga joyladik.
4. Shirin mevalar bolalarga juda yoqdi.

